



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 4-son

VOLUME 4 / ISSUE 4 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.4.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“Yurisprudensiya” –
“Юриспруденция” – “Jurisprudence”
huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston
matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda
1140-sonli guvohnoma bilan davlat
ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent
davlat yuridik universitetiga tegishli.
Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal
materiallaridan foydalanish, tarqatish
va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan
amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Muharrirlar:

Sh. Jahonov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev,
K. Abduvaliyeva, Y. Mahmudov,
M. Sharifova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Jurnal 23.08.2024-yilda bosmaxonaga
topshirildi. Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli 23,48 b.t. Adadi: 100.
Buyurtma raqami: 133.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy
boshqarmasi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent

MAS‘UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O‘zbek tili
va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori, dotsent

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

J. Blum – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori
(Boston, AQSH)

M. Vishovatiy – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti,
yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

X. Xayitov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori
(Toshkent, O‘zbekiston)

I. To‘raboyev – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b.,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

S. Xolboyev – O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi
huzuridagi Sudyalari oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi
(Toshkent, O‘zbekiston)

N. Raxmonkulova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti
dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik
fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Ne‘matov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik
fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b.,
filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция – Yurisprudensiya – Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Редакторы:

Ш. Жахонов, Е. Ярмолик,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Й. Махмудов, М. Шарифова

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1387

Журнал передан в типографию
23.08.2024.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 23,48. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 133.

Отпечатано в типографии ТГЮУ.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – доктор права, профессор Школы права колледжа Бостона (Бостон, США)

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Хошимхонов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Ахмедшаева – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Х. Хаитов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

И. Турабоев – доктор философии по юридическим наукам, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

С. Холбоев – кандидат юридических наук, доцент Высшей школы судей при Верховном судейском совете Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Н. Рахмонкулова – доктор юридических наук, доцент Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент, Узбекистан)

З. Эсанова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Курбанов – доктор философии по юридическим наукам, доцент (Ташкент, Узбекистан)

Р. Кучкаров – кандидат филологических наук, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yurisprudensiya” –
“Юриспруденция” – “Jurisprudence”
legal scientific and practical journal
was registered by the Press and Infor-
mation Agency of Uzbekistan on De-
cember 22, 2020 with certificate No.
1140.

The journal is included in
the list of journals of the Higher
Attestation Commission under the
Ministry of Higher Education, Science
and Innovations of the Republic of
Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent
State University of Law. All rights re-
served. Use, distribution and reproduc-
tion of journal materials are carried
out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Editors:

Sh. Jakhonov, Y. Yarmolik, E. Mustafaev,
K. Abduvalieva, Y. Makhmudov,
M. Sharifova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Subscription index: 1385.

The journal is submitted to the Printing
house on 23.08.2024.

Paper size: A4.

Cond. p.p. 23,48. Unit: 100.

Order: 133.

Published in Printing house of TSUL.

© Tashkent State University of Law

CHIEF EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of
Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Head of the Scientific Department of Tashkent State
University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences, Associate
Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and
Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy
in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law
(Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk,
Poland)

A. Khoshimxonov – Associate Professor of Tashkent State University
of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Axmedshaeva – Professor of Tashkent State University of Law,
Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

X. Xayitov – Professor of the Academy of Public Administration
under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law
(Tashkent, Uzbekistan)

I. Turaboev – Acting Associate Professor of Tashkent State
University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Tashkent,
Uzbekistan)

S. Xolboev – Associate Professor of the Supreme School of Judges
under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan,
Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

N. Raxmonkulova – Associate Professor of the University of World
Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Z. Esanova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor
of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Ne'matov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor
of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Kurbanov – Associate Professor of Tashkent State University of
Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

R. Kuchkarov – Acting Associate Professor of Tashkent State
University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent,
Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 11 **AXMEDSHAYEVA MAVLYUDA AXATOVNA**
Markaziy Osiyo davlatlarida kodekslashtirish jarayoni: ayrim nazariy-huquqiy masalalar
- 20 **AMIROV SANJAR ILYOS O'G'LI**
Tabiiy huquq nazariyasi va uning mohiyati

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 33 **NEMATOV JO'RABEK NEMATILLOYEVICH**
Ma'muriy islohotlar sharoitida oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini ma'muriy-huquqiy jihatdan tartibga solish: ilmiy-nazariy tahlil
- 42 **G'OZIYEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**
2030-yilgacha o'tkaziladigan ma'muriy islohotlar davrida oliy ta'lim sohasini rivojlantirishning ma'muriy-huquqiy jihatlari
- 56 **MUSTANOV ILXOM ABDIVALIJONOVICH**
Bank tizimini tashkil etish bo'yicha ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasi: qiyosiy-huquqiy tahlil

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 71 **XAZRATQULOV ODILBEK TURSUNOVICH**
"Lex informatica" – raqamli huquqlarni amalga oshirishning kollizion prinsipi sifatida
- 82 **XOSILOV ERKIN DILMUROTOVICH**
Insofsizlik fuqarolik-huquqiy kategoriya sifatida

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. XO'JALIK PROTSESSUAL HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 94 **ESANOVA ZAMIRA NORMUROTOVNA**
Sud hujjatlarini qayta ko'rish instituti: taftish instansiyasi faoliyati tahlili
- 105 **HABIBULLAYEV DAVLATJON YULCHIBOYEVICH**
Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual adolat va protsessual qonuniylikning o'zaro tahlili
- 114 **XUDOYNAZAROV DADAXON AVAZ O'G'LI**
Iqtisodiy protsessda odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar faoliyatini raqamlashtirish masalalari

12.00.07 – SUD HOKIMIYATI. PROKUROR NAZORATI. HUQUQNI MUHOFAZA QILISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH. ADVOKATURA

- 124 **ABDUXAKIMOV MURODULLO TOG'AYEVICH**
Yer qonunchiligi ijrosini nazorat qilish jarayonida prokuraturaning boshqa davlat organlari bilan o'zaro munosabatlari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 140 **NIYOZOVA SALOMAT SAPAROVNA**
Voyaga yetmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar sabablari

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI151 **BAZAROVA DILDORA BAXADIROVNA**

Jinoiy protsessda shaxs huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlari

170 **IMOMNAZAROV ALISHER HASANOVICH**

Ko'zdan kechirish jarayoni va natijalarni qayd etish bilan bog'liq muammolar tahlili

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

180 **XUN VEYSIN**O'zbekistonda "Bir makon, bir yo'l" tashabbusini amalga oshirishning huquqiy jihatlari:
xitoylik investorlar uchun imkoniyatlar va xatarlar

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

191 **MAJIDOV SHAHZOD ABDIXALIL O'G'LI**Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilish to'g'risidagi qonun
loyihadini takomillashtirish yuzasidan ayrim mulohazalar

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

11 АХМЕДШАЕВА МАВЛЮДА АХАТОВНА

Процесс кодификации законодательства в государствах Центральной Азии:
некоторые теоретико-правовые вопросы

20 АМИРОВ САНЖАР ИЛЁС УГЛИ

Теория естественного права и её сущность

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

33 НЕМАТОВ ЖУРАБЕК НЕМАТИЛЛОВИЧ

Административно-правовое регулирование деятельности организаций высшего образования
в условиях административных реформ: научно-теоретический анализ

42 ГОЗИЕВ КОЗИМБЕК ЖОВЛОНБЕКОВИЧ

Административно-правовые аспекты развития сферы высшего образования в период
административной реформы до 2030 года

56 МУСТАНОВ ИЛХОМ АБДИВАЛИЖОНОВИЧ

Опыт отдельных зарубежных стран по организации банковской системы: сравнительно-правовой
анализ

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

71 ХАЗРАТКУЛОВ ОДИЛБЕК ТУРСУНОВИЧ

Lex informatica как коллизионный принцип реализации цифровых прав

82 ХОСИЛОВ ЭРКИН ДИЛМУРОТОВИЧ

Недобросовестность как гражданско-правовая категория

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ТРЕТЕЙСКИЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ

94 ЭСАНОВА ЗАМИРА НОРМУРОТОВНА

Институт пересмотра судебных актов: анализ деятельности ревизионной инстанции

105 ХАБИБУЛЛАЕВ ДАВЛАТЖОН ЮЛЧИБЕКОВИЧ

Анализ процессуальной справедливости и процессуальной законности в гражданском
судопроизводстве

114 ХУДОЙНАЗАРОВ ДАДАХОН АВАЗ УГЛИ

Вопросы цифровизации деятельности лиц, содействующих осуществлению правосудия
в экономическом процессе

12.00.07 – СУДЕБНАЯ ВЛАСТЬ. ПРОКУРОРСКИЙ НАДЗОР. ОРГАНИЗАЦИЯ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. АДВОКАТУРА

124 АБДУХАКИМОВ МУРОДУЛЛО ТОГАЕВИЧ

Взаимодействие органов прокуратуры с другими государственными органами в процессе
надзора за исполнением земельного законодательства

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. КРИМИНОЛОГИЯ. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

140 НИЯЗОВА САЛОМАТ САПАРОВНА

Причины совершения преступлений против половой неприкосновенности несовершеннолетних

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА. ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКОЕ ПРАВО. СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

151 **БАЗАРОВА ДИЛДОРА БАХАДИРОВНА**

Конституционные гарантии прав личности в уголовном процессе

170 **ИМОМНАЗАРОВ АЛИШЕР ХАСАНОВИЧ**

Анализ проблем, связанных с фиксацией процесса и результатов осмотра

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

180 **ХУН ВЕЙСИН**

Правовые аспекты реализации инициативы «Один пояс, один путь» в Узбекистане: возможности и риски для китайских инвесторов

12.00.12 – ПРОБЛЕМЫ КОРРУПЦИИ

191 **МАЖИДОВ ШАХЗОД АБДИХАЛИЛ УГЛИ**

Некоторые суждения по совершенствованию законопроекта о защите лиц, сообщивших о коррупционных правонарушениях

CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

- 11 **AXMEDSHAEVA MAVLUDA AXATOVNA**
Codification process in Central Asian countries: some theoretical and legal issues
- 20 **AMIROV SANJAR ILYOS UGLI**
Theory of natural law and its essence

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCE AND CUSTOMS LAW

- 33 **NEMATOV JURABEK NEMATILLOEVICH**
Administrative and legal regulation of the activity of higher education organizations in the conditions of administrative reforms: scientific and theoretical analysis
- 42 **GOZIEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**
Administrative and legal aspects of the development of the field of higher education in the period of administrative reforms until 2030
- 56 **MUSTANOV ILKHOM ABDIVALIJONOVICH**
The experience of some foreign countries on the organization of the banking system: a comparative-legal analysis

12.00.03 – CIVIL LAW. ENTREPRENEURSHIP LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 71 **KHAZRATKULOV ODILBEK TURSUNOVICH**
“Lex informatica” as a principle of conflict for the implementation of digital rights
- 81 **KHOSILOV ERKIN DILMUROTOVICH**
Bad faith as a civil law category

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION AND MEDIATION

- 94 **ESANOVA ZAMIRA NORMUROTOVNA**
Institute for review of judicial documents: an analysis of the activities of the inspection instance
- 105 **KHABIBULLAEV DAVLATJON YULCHIBOYEVICH**
Mutual analysis of procedural fairness and procedural legality in the conduct of civil court cases
- 114 **KHUDOYNABAYEV DADAKHON AVAZ UGLI**
Issues of digitalization of the activities of persons assisting in the implementation of justice in the economic process

12.00.07 – JUDICIARY. PROSECUTOR'S SUPERVISION. ORGANIZATION OF LAW ENFORCEMENT ACTIVITIES. ADVOCACY

- 124 **ABDUXAKIMOV MURODULLO TOGAEVICH**
Interaction of prosecutor's offices with other state bodies in the process of supervising the implementation of land legislation

12.00.08 – CRIMINAL LAW, PREVENTION OF OFFENSES. CRIMINOLOGY. CRIMINAL PROCEDURAL LAW

- 140 **NIYOZOVA SALOMAT SAPAROVNA**
Reasons for committing crimes against the sexual integrity of minors

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. CRIMINOLOGY, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

151 **BAZAROVA DILDORA BAKHADIROVNA**

Constitutional guarantees of individual rights in criminal proceedings

170 **IMOMNAZAROV ALISHER KHASANOVICH**

Analyzing issues related to the review process and recording the results

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

180 **HONG WEIXING**

Legal aspects of the implementation of the "one belt, one road" initiative in Uzbekistan: opportunities and risks for chinese investors

12.00.12 – CORRUPTION PROBLEMS

191 **MAJIDOV SHAKHZOD ABDIXALIL UGLI**

Some considerations for improving the draft law on the protection of persons reporting corruption offenses

Kelib tushgan / Получено / Received: 01.05.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 06.08.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 23.08.2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.4./NVAC4271

UDC: 346.62+336.71(045)(575.1)

BANK TIZIMINI TASHKIL ETISH BO'YICHA AYRIM XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL

Mustanov Ilxom Abdivalijonovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0000-0203-2776
e-mail: ilxomabdivalijonovich@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada moliya tizimi tarkibi sifatida bank tizimi, turlari, bank prinsiplari va vazifalari tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotdan maqsad ilmiy o'rganish natijasida bank tizimini takomillashtirishga qaratilgan taklif va xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Banklar moliya tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Moliya tizimi moliyaviy munosabatlarni bank-kredit siyosati va qonunchiligi asosida tartibga soladi. Banklar moliyaning alohida tizimi sifatida faoliyat yuritadi, xususan, birinchi bo'g'inda tijoratchi banklar hamda nobank tashkilotlari, ikkinchi bo'g'inda mazkur tashkilotlarni nazorat qiladigan Markaziy bank namoyon bo'ladi. Markaziy bank, tijorat banklari, shu'ba, chet el ishtirokidagi va chet el banklari yagona bir tizimni tashkil qiladi. Bank tizimi o'zaro nazorat, bo'ysunish va yagona tashkiliy tuzilmani anglatadi. Shu sababli banklar tizimi doirasini aniq belgilash muhim hisoblanadi. Maqolada mazkur masalalarni milliy va xorijiy davlatlar qonunchiligini qiyosiy tahlil qilish, tarixiy-huquqiy, tizimli, mantiqiy, statistik hamda boshqa usullar yordamida o'rganish orqali milliy qonunchilikda bank tizimi, prinsiplari tushunchasi ishlab chiqilgan, shuningdek, bank qonunchiligiga doir takliflar berilgan. Mazkur takliflar ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, qonunni qo'llash amaliyotida, bank qonunchiligi normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirishda qo'llanadi. Tijorat banklarining maqsadi daromad olishga qaratilgan bo'lib, ular shu maqsadda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini kreditlaydi hamda moliyalashtiradi.

Kalit so'zlar: bank tizimi, bank faoliyati maqsadi, Markaziy bank, bank faoliyati prinsiplari, bank ishi, bank vazifalari, bank turlari, bank filiali.

ОПЫТ ОТДЕЛЬНЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН ПО ОРГАНИЗАЦИИ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

Мустанов Илхом Абдивалижонович,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной статье автор проанализировал банковскую систему, виды банков, принципы банковского дела и функции банков как структуры финансовой системы. Целью данного исследования является выработка предложений и выводов по результатам

исследования, направленных на совершенствование банковской системы. Банки являются неотъемлемой частью финансовой системы. Финансовая система регулирует финансовые отношения, опираясь на банковско-кредитную политику и законодательство. В качестве обособленной структуры всей финансовой системы выступают банки, в частности, на первом её уровне – коммерческие банки и небанковские организации, на втором – Центральный банк, контролирующий эти организации. Центральный банк, коммерческие банки, дочерние банки, банки за рубежом и иностранные банки образуют единую систему. Банковская система означает взаимный контроль, подчинение и единую организационную структуру. Поэтому важно чётко определить сферу деятельности банковской системы. Посредством сравнительного анализа национального законодательства и законодательства зарубежных государств, историко-правового, системного, логического, статистического и иных методов исследования этих вопросов разработаны понятия и принципы банковской системы и предложения для совершенствования национального банковского законодательства. Данные предложения могут быть использованы в научной деятельности, законотворчестве, правоприменительной практике, толковании норм и совершенствовании национального законодательства.

Ключевые слова: банковская система, цели деятельности банка, Центральный банк, принципы деятельности банка, банковское дело, банковские функции, типы банков, филиал банка.

THE EXPERIENCE OF SOME FOREIGN COUNTRIES ON THE ORGANIZATION OF THE BANKING SYSTEM: A COMPARATIVE-LEGAL ANALYSIS

Mustanov Ilkhom Abdivalijonovich,

Independent researcher of Tashkent State University of Law

Abstract. In this article, the author analyzed the banking system, types of banks, principles of banking, and the tasks of banks as part of the financial system. The purpose of this study is to develop proposals and conclusions aimed at improving the banking system as a result of the study. Banks are an integral part of the financial system. The financial system regulates financial relations on the basis of banking and credit policies and legislation. Banks act as a separate system of the financial system; in particular, commercial banks and non-banking organizations are represented in the first level, and the central bank that controls these organizations is represented in the second level. The Central Bank, commercial banks, subsidiaries, foreign banks and foreign banks form a single system. The banking system means mutual control, subordination, and a single organizational structure. It is therefore important to clearly define the scope of the banking system. By studying these issues through a comparative analysis of domestic and foreign legislation, historical, legal, systemic, logical, statistical, and other methods, the concept of the banking system and the principles of national legislation, as well as proposals for banking legislation, were developed. These proposals are used in scientific activities, lawmaking, law enforcement, interpretation of banking legislation, and improvement of national legislation. The goal of commercial banks is to make a profit, and for this purpose they lend and finance production and services.

Keywords: banking system, purpose of banking, central bank, banking principles, banking, banking functions, types of banking, bank branch.

Kirish

Dunyoda banklarning normal faoliyatini ta'minlash orqali davlatning bank-kredit tizimini barqarorlashtirish, bank faoliyatini zamonaviylashtirish yo'li bilan esa valyuta va narx barqarorligini ta'minlash tobora

muhim ahamiyat kasb etmoqda. Banklar o'z funksiyasini normal amalga oshirishida bank siyosati va qonunchiligini takomillashtirish katta ahamiyatga ega. *The Heritage Foundation* xalqaro tadqiqot institutining 2024-yilgi tahlili natijalariga ko'ra, O'zbekiston Res-

publikasi iqtisodiy erkinlik indeksi bo'yicha dunyoda 103-o'rinni egalladi. Xususan, bu indeks bo'yicha Qozog'iston – 66-, Qirg'iziston – 112-, Tojikiston – 137-, Turkmaniston – 162-, Estoniya – 8-, Litva – 15-, Gruziya – 32-, Latviya – 20-, Armaniston – 47-, Rossiya – 131-, Moldova – 99-, Belarus Respublikasi – 153-, Ozarbayjon 70-o'rinlarni egalagan. E'tiborlisi, Jahon bankining *Doing Business-2020* indeksining kredit olish reytingida O'zbekiston Respublikasi 67-o'rinni egalladi. Ushbu ko'rsatkichlar bank faoliyatini xalqaro standartlar asosida zamonaviylashtirish va bank faoliyatiga oid qonunchilikni yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish zarurati mavjudligidan dalolat beradi.

Jahonda bank faoliyatining zamonaviy usul va vositalarini qo'llash orqali tadbirkorlik hamda ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratilgan innovatsion loyihalarni joriy qilishga keng ahamiyat berilmoqda. Jumladan, xalqaro bank standartlarini milliy qonunchilikka doimiy implementatsiya qilish, banklar faoliyatiga qo'yilgan minimum talablarga javob berish, Markaziy bank tomonidan belgilangan normativlarga maksimum qat'iy amal qilish, bank operatsiyalarining zamonaviy turlarini joriy etish, bank mijozlariga qulay va sifatli bank xizmatlarini taklif etish hamda bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlarda manfaatlarni himoya qilish masalasiga alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 147-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi o'zining yagona moliya, pul va bank tizimiga egaligi, 151-moddasida esa O'zbekiston Respublikasining bank tizimi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan va banklardan iborat ekanligi belgilangan. Bundan kelib chiqadiki, O'zbekistonda banklar yagona va bir tizimga birlashtirilgan. Banklar har qanday davlat moliya tizimining eng muhim elementlaridan hisoblanadi. Maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, banklar ham turlarga bo'linadi. Ularning jamlanmasi

esa bitta tizimni tashkil etadi. Avvalambor, bank tizimi tushunchasiga to'xtalib o'tsak, mazkur masalaga olimlarimiz turlicha yondashadilar.

Banklar tizimi milliy va xorijiy olimlar, xususan, O. Raximova, Sh. Bozarov, E. Xojiyev, A.M. Hamidov, A. Zulyarov, O. Axmadjonov, M. Yo'ldoshev, Y. Tursunov, A.A. Omonov, T.M. Qoraliyev, A. Abduraxmanov, M. Umarova, O. Sattarov, Adik Li, G.F. Ruchkina, Y.N. Polyushko, M. Miradova, A.O. Venina, E.R. Kadirgulova, A.D. Bunin, M.P. Morozova, Y.P. Ogorodnikova, Y.A. Kasheyeva, L.T. Yefimova, N.D. Eriashvili, G. Tosunyan, N.Y. Yerpileva, Alfred M. Pollard, Raymond Natter va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Shunga qaramasdan, ushbu tizimni alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganish lozim bo'ladi.

Material va metodlar

O'zbekistonda bank tizimining huquqiy asoslarini normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlarda qonunchiligi va amaliyoti hamda bank huquqida mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi. Ushbu manbalar asosida tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya, deduksiya va statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

O. Raximova va Sh. Bozarovlar bank tizimi respublika hududida faoliyat ko'rsatayotgan banklar yig'ini va ular o'rtasidagi munosabatlar asoslari ekanini ta'kidlashadi. Shuningdek, ular bank tizimi tushunchasiga miqdoriy ko'rsatkichlardan tashqari banklar o'rtasidagi o'zaro ko'rsatkichlarni, munosabatlarni amalga oshirish tartibini ham kiritishadi. Ularning aytishicha, bank tizimi bank tashkilotlarining oddiy yig'ini emas, balki ular o'rtasidagi bog'liqlar va qaramliklardir [1, 19-b.].

Shuningdek, iqtisodchi olim M. Umarova bank tizimi moliya bozorining asosiy

bo'g'inlaridan biri ekanini, uning rivojlanishi, bir tomondan, mamlakat moliya sektori rivojlanishiga turtki bo'lsa, ikkinchi tomondan, real sektorni moliyalashtirish natijasida ishlab chiqarish obyektlari faoliyatining rivojlanishiga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish orqali iqtisodiyotning rivojlanishiga olib kelishini ta'kidlaydi [2, 13-b]. Iqtisodchi olim O. Sattarovning ta'rifiga ko'ra, bank tizimi yaxlit va evolyutsion tizim bo'lib, faqat banklar faoliyatiga oid bo'lgan o'zaro bog'liq tashkiliy-uslubiy, funksional va tartibga solish-nazorat elementlarining yig'indisidir [3, 27-b].

G.F. Ruchkina esa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida ushbu institutlardan iborat bank, moliya va kredit tizimi mavjudligini ta'kidlaydi: Markaziy bank; bank (tijorat, jamg'arma, ipoteka va boshqalar) hamda bank bo'lmagan kredit tashkilotlari (hisob-kitob, kliring va boshqalar); ixtisoslashgan bankdan tashqari kredit-moliya institutlari (sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlari, pensiya jamg'armalari va boshqalar) [4, 14-b.]. Adik Li bank tizimi deganda u yoki bu davlatda muayyan bir tarixiy davrda mavjud bo'lgan turli shakldagi banklar va bank institutlarining o'zaro bog'liq bo'lgan majmui tushunilishini aytadi.

"Bank tizimi" tushunchasi bilan birga, nisbatan keng ma'nodagi "bank-kredit tizimi" tushunchasi ham mavjud bo'lib, u ilmiy va o'quv adabiyotlarida tez-tez uchrab turadi. Qayd etilgan ushbu tushunchalar o'rtasidagi farq shundan iboratki, gap bank-kredit tizimi haqida ketayotgan bo'lsa, unga banklardan tashqari, ixtisoslashtirilgan moliya muassasalari, masalan, sug'urta, investitsiya va boshqa institutlar ham kiritiladi, lekin ular ayrim bank operatsiyalarini amalga oshirsa ham, bank maqomiga ega bo'lmaydi [5, 533-b.].

Fikrimizcha, moliya-kredit tizimi kengroq tushuncha bo'lib, bank tizimini o'z ichiga oladi. Mazkur tizimda nafaqat banklar, balki nobank va boshqa kredit muassasalari ham ish-tirok etadi.

Shuningdek, Y.N. Polyushkoning fikricha, bank tizimi – bir-biri va tashqi muhit bilan o'zaro bog'liq bo'lgan banklar birlashmasi. Bank tizimiga Markaziy bank va tijorat banklari kiradi. Iqtisodiy tizimning bir qismi bo'lgan bank tizimi jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlar va aloqalarni aks ettiradi. Bank tizimi kredit tizimining tarkibiy qismlaridan biridir. Kredit tizimiga banklardan tashqari ixtisoslashgan moliya-kredit tashkilotlari (moliya kompaniyalari, lizing firmalari, investitsiya kompaniyalari, fond birjalari, pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalari, lombardlar, lizing kompaniyalari va boshqalar kiradi [6, 754–758-b.]. Fikrimizcha, kredit tizimi faqatgina kredit berish bilan shug'ullanuvchi subyektlar tizimini anglatadi va o'z navbatida bank tizimidan faqatgina kredit beruvchi nobank tashkilotlarini ham qamrab olishi bilan farqlanadi.

E. Xojiyevning fikricha, kredit va moliya operatsiyalarining asosiy qismini qamrab oladigan kredit tizimining hal qiluvchi bo'g'ini bank tizimidir. Bank bir bosqichli va ikki bosqichli bank tizimiga bo'linadi. Bir bosqichli bank tizimi doirasida barcha kredit muassasalari, jumladan, Markaziy bank ham yagona bosqichda turadi. Shuningdek, mijozlarga kredit-hisob xizmati ko'rsatishida bir xil vazifani bajaradi. Tuzilishning bunday tamoyili asosan iqtisodiy tuzilmalari sust rivojlangan mamlakatlarga, shuningdek, boshqaruvning totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik tartiblari hukm surayotgan davlatlarga xos. Ikki bosqichli bank tizimida banklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ikki yo'nalishda, ya'ni bo'yiga (vertikal) va eniga (gorizontal) tuzilishga asoslanadi. Bo'yiga (vertikal) – rahbarlik qiluvchi, boshqaruvchi markaz hisoblangan Markaziy bank bilan quyi bo'g'inlar – tijorat va ixtisoslashgan banklar o'rtasidagi bo'ysunish munosabatlari, eniga (gorizontal) tuzilishda turli quyi bo'g'inlar o'rtasidagi teng huquqli sheriklik munosabatlari tushuniladi [7, 256-b.].

Fikrimizcha, banklar tizimi o'zida nafaqat banklardan iborat bo'lgan jamlanmani, balki

yagona maqsad va tashkiliy-bo'ysunuvga asoslangan tizimni ham ifodalaydi. Xususan, A. Hamidovning fikricha, jahon amaliyotida bank tizimining ikki asosiy modelidan foydalaniladi, birinchisi – segmentlangan bank, ikkinchisi – universal bank tizimlari. O'zbekiston Respublikasining bank tizimi ko'rsatilgan ikkala model xususiyatlarini ham qamrab oladi. Bir tomondan, mamlakatimiz bank qonunchiligi bank faoliyati sohasini qat'iy belgilab, bank operatsiyalarining aniq turlarini belgilab beradi va ularning majmui bank faoliyati mazmunini tashkil etadi. Ikkinchi tomondan, banklarga operatsiyalarning boshqa turlarini ham amalga oshirish uchun ruxsat berilib, ularning ro'yxati qonunda belgilab qo'yiladi [8, 125-b.]. Bu olimning fikriga qo'shilgan holda shuni aytish mumkinki, bank tizimi o'zida bankka oid markazlashgan qonunchilik tizimini ham ifodalaydi.

E. Xojiyev bank tizimi har qanday davlat moliya tizimining eng muhim elementlaridan biri hisoblanishini ta'kidlaydi. Undan iqtisodiy o'sishni ta'minlash, inflyatsiya va to'lov balansini tartibga solish kabi joriy va ustuvor vazifalarni hal etishda foydalaniladi. Jahon amaliyotida moliya-kredit muassasalari tomonidan o'z mijozlariga ko'rsatiladigan xizmatlar xususiyati bo'yicha kredit tizimining uch muhim elementi ajratiladi; 1) Markaziy bank; 2) tijorat banklari; 3) ixtisoslashtirilgan moliya muassasalari (sug'urta, jamg'arma va boshqa muassasalar [9, 17-b.]. Olim banklar tizimini kredit tizimining bir qismi sifatida baholaydi.

Shuningdek, A. Zulyarovning fikricha, O'zbekiston Respublikasining bank tizimiga Markaziy bank va unga tobe bo'lgan muassasalar, xususiyy banklar kiradi. Tijorat kooperativ va xususiyy banklar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa banklar bilan o'zaro munosabatlarini shartnoma asosida quradi [10, 6-b.]. Olim bank tizimiga Markaziy bankka bo'ysunuvchi boshqa muassasalarni ham kiritadi.

Yana bir olim A. Rahimovanning fikricha, O'zbekiston Respublikasida boshqa rivojlangan davlatlarning bank tizimi singari ikki pog'onali bank tizimi mavjud. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining birinchi pog'onasini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardagi hududiy boshqarmalari tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yagona markazlashtirilgan boshqaruv tizimi hisoblanadi. Markaziy bank "banklarning banki" deb ataladi va u O'zbekiston Respublikasi bank tizimining o'zagini tashkil etadi. Bank tizimining ikkinchi pog'onasi tijorat banklaridan iborat [11, 259-b.]. Ushbu olimning bank tizimida asosiy urg'uni Markaziy bankka berib, uning "banklarning banki" deb e'tirof etishi juda o'rinli.

Amaldagi bank qonunchiligiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida bank tizimi tushunchasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunda mustahkamlanmagan. Ammo bank tizimi tushunchasi ayrim xorijiy davlatlarning bank qonunchiligida qayd etilgan. Xususan, Qozog'iston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni 3-moddasiga muvofiq, Qozog'iston Respublikasi ikki bosqichli bank tizimiga ega. Qozog'iston Respublikasi Milliy banki davlatning Markaziy banki bo'lib, bank tizimining yuqori (birinchi) darajasini ifodalaydi. Boshqa barcha banklar (Qozog'iston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan maxsus huquqiy maqomga ega bo'lgan Qozog'iston Taraqqiyot banki bundan mustasno), bank tizimining quyi (ikkinchi) darajasini ifodalaydi [12, 2-b.]. Bundan ko'rinib turibdiki, Qozog'istonda maxsus maqomga ega bo'lgan alohida toifa banklar ham mavjud.

Ozarbayjon Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni 2-moddasiga muvofiq, Respublikaning bank tizimi moliya bozorini nazorat qiluvchi organ – Ozarbayjon Respublikasi Markaziy banki va kredit tashkilotlaridan iborat [13, 3-b.]. Mazkur davlatda tijorat banklari o'rniga kredit

tashkilotlari sifatida kengroq tushunchadan foydalanilgan.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni 2-moddasiga muvofiq, Rossiya Federatsiyasining bank tizimiga Rossiya banki, kredit tashkilotlari, shuningdek, xorijiy banklarning vakolatxonalari kiradi [14, 56-b.]. E’tiborlisi shundaki, mazkur davlatda bank tizimi o‘z ichiga xorijiy banklar vakolatxonalari ham qamrab oladi.

Tojikiston Respublikasining “Bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni 1-moddasiga muvofiq, Tojikiston Respublikasi bank tizimi Tojikiston Milliy banki va Tojikiston Respublikasida faoliyat yurituvchi boshqa kredit-moliya tashkilotlaridan iborat [15, 4-b.]. Mazkur davlatda tijorat banklari o‘rniga kengroq tushuncha sifatida kredit-moliya tashkilotlari qo‘llangan.

Turkmaniston Respublikasining “Kredit muassasalari va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni 2-moddasiga muvofiq, Turkmaniston bank tizimi ikki bosqichli tizim bo‘lib, unga Turkmaniston Markaziy banki (birinchi daraja) va kredit tashkilotlari, shu jumladan, Turkmanistonda ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy banklarning filiallari va vakolatxonalari (ikkinchi daraja) kiradi [16, 3-b.]. E’tiborli jihati shundaki, mazkur davlatda bank tizimi xorijiy banklarning filiallarini ham qamrab oladi.

Armaniston Respublikasining “Bank va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni 2-moddasiga muvofiq, Armaniston Respublikasi bank tizimiga Armaniston Respublikasi Markaziy banki, Armaniston Respublikasi hududida faoliyat yurituvchi banklar (shu jumladan, shu‘ba banklar), ularning filiallari, vakolatxonalari, operatsion idoralari (punktleri), shuningdek, filiallari Armaniston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy banklarning vakolatxonalari kiradi [17, 2-b.]. Mazkur davlat bank tizimi shu‘ba bank va filiallarni ham qamrab oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, deyarli barcha davlatlarda

bank tizimida Markaziy bank, tijorat banklari, shu‘ba banklar, ularning filiallari hamda xorijiy banklarning vakolatxonalariga urg‘u beriladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Shu o‘rinda “bank turlari” kategoriyasiga to‘xtalib o‘tish lozim. Mazkur masalaga olimlarimiz turlicha yondashadilar. Masalan, A. Abduraxmanovning fikricha, hozirgi vaqtda turli iqtisodiy xizmatlarning amalga oshirishiga ko‘ra bankning *markaziy (emissiya) bank va tijorat banki* kabi asosiy turlari faoliyat ko‘rsatadi.

Markaziy bank – mamlakatning jami kredit tizimini nazorat qiladi, davlat pul-kredit siyosatini amalga oshiradi, naqd pul va qimmatbaho qog‘ozlar emissiyasi bilan shug‘ullanadi, mamlakatning oltin-valyuta zaxiralarini saqlaydi, davlat va tijorat bankiga kreditlar beradi.

Tijorat banki o‘z navbatida universal va ixtisoslashgan banklarga bo‘linadi. Ixtisoslashgan bank investitsiya banki, jamg‘arma (omonat) banki, maxsus bank, kooperativ bank va boshqalardan iborat. Universal bank jismoniy va yuridik shaxslarga xilma-xil bank xizmatlari ko‘rsatadi (depozitlarni jalb etish, veksels hisobi, kredit berish, qimmatbaho qog‘ozlarni sotish va sotib olish). Bu bank va kredit tizimining o‘zagini tashkil etadi.

Mulk shakliga ko‘ra banklar davlat banki, davlat ishtirokidagi aralash bank, davlatlararo bank, xalqaro bank, chet el sarmoyasi ishtirokidagi bank, aksiyadorlik banki, bankirlar uyi, kooperativ bank, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish banki, kommunal bank, xususiy bank va boshqa turlarga bo‘linadi [18, 1310–1313-b.]. Mazkur olim banklarni turli mezonlar bo‘yicha to‘liq tasniflab, ularning vazifa, operatsiyalar toifasi va mulk shakliga urg‘u bergan.

M. Miradovning fikricha, Markaziy banklar mamlakat uchun pul taklifini boshqaradi. Ushbu banklar pul-kredit siyosatini belgilash, valyuta harakatlarini kuzatish va foiz stavkalarining “benchmark” darajasini belgilash uchun

javobgardir. Muxtasar qilib aytganda, ular milliy bank tizimining asosini tashkil etadi.

Chakana bank oddiy mijozlarga, shu jumladan, kichik biznes egalariga kreditlar, depozit hisobvaraqlari va boshqa bank xizmatlarini taklif etadi. Tijorat banklari odatda biznes yoki korporatsiyalarga xizmat qiladi, lekin ular alohida bank mijozlarining ehtiyojlariga ham xizmat qilishi mumkin. Chakana banklar singari tijorat banklari ham kreditlar berish va depozit hisobvaraqlari hamda xalqaro bank yoki to'lovlarni qayta ishlash kabi boshqa bank xizmatlarini taklif qiladi.

Tijorat banklari odatda keng ko'lamli xizmatlarni taqdim etadi. Tijorat banki, masalan, ko'chmas mulk yoki tijorat uskunalar uchun kreditlar beradi, qarz oluvchilarning foizlarini va qarz olish imtiyozi uchun to'lovlarni amalga oshiradi. Xuddi shu moliya instituti chakana bank xizmatlari bilan bir qatorda, tijorat bank xizmatlarini taklif qila oladi. Investitsiya banklari qimmatli qog'ozlar savdosida ishtirok etishlari, investorlarning hisob raqamlarini boshqarishlari yoki ikkalasini ham bir vaqtning o'zida bajarishlari mumkin. Investitsiya banki qimmatli qog'ozlarni sotib olish yoki sotishda yordam berib, bozorlarga pul kiritmoqchi bo'lgan investorlar uchun vositachi vazifasini o'tashi mumkin. Shuningdek, ular mijozlarga investitsiya bo'yicha maslahat bera oladi [19, 2-b.]. Olim banklarning xizmat ko'rsatish sohasiga qarab, ularni tasniflaydi va tijorat banklarini chakana bank sifatida ko'radi.

O. Axmadjonovning fikricha, banklarning bir turi sifatida Islom banki islom shariati qoidalari hamda tamoyillariga muvofiq bank va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tizimdir [20, 756-b.].

Fikrimizcha, bank turlari ularga berilgan litsenziya turlariga qarab ham farq qiladi, masalan, maxsus va umumiy litsenziyalar bo'yicha banklar ayrim bank operatsiyalarini amalga oshirishi yoki oshirmasligi mumkin. Bundan tashqari, bank turlari faoliyat yo'nalishi bo'yicha ham farqlanadi. Misol

uchun, investitsiya banklarining asosiy faoliyati investitsiyaga yo'naltiriladi, ipoteka banklari esa ko'chmas mulklarga kreditlar ajratadi. Shu bilan birga, bank turlari mulk shakliga ko'ra ham farqlanadi, masalan, davlatga qarashli bank, xususiy shaxslarga tegishli bank, chet el banki va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi bank qonunchiligida banklarning turlariga oid normalar mustahkamlanmagan. Ammo ayrim xorijiy davlatlarning bank qonunchiligida banklarning turlariga oid tushunchalar belgilangan.

Masalan, Qozog'iston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunida chet el ishtirokidagi bank tushunchasi belgilangan. Unga ko'ra, chet el ishtirokidagi bank aksiyalarning uchdan biridan ko'prog'iga egalik qiladigan yoki boshqariladigan ikkinchi darajali bankdir. Agarda ustav kapitalining muomaladagi aksiyalari miqdorining uchdan biridan ko'prog'iga Qozog'iston Respublikasining norezidentlari egalik qilsa, mazkur toifa sifatida qaralishi belgilangan.

Shuningdek, ushbu qonunda davlatlararo bank tushunchasi qayd etilgan. Unga ko'ra, davlatlararo bank xalqaro shartnoma (bitim) asosida tashkil etilgan va faoliyat yurituvchi bank bo'lib, uning ta'sisчилari Qozog'iston Respublikasi hukumati (yoki u vakolat bergan davlat organi) va ushbu shartnomani (bitimni) imzolagan davlat (davlatlar) hukumati (hukumatlari) hisoblanadi [12]. E'tiborlisi shundaki, mazkur davlat bank qonunchiligi chet el ishtirokidagi bank hamda davlatlararo bank tushunchalarini huquqiy tartibga solgan.

Bundan tashqari, bank faoliyatining asosiy fundamental qoidalari, ya'ni prinsiplari mavjud. Mazkur qoidalar bank sohasining asosiy bosh qoidalari hisoblanadi.

Bank huquqi prinsiplari me'yoriy ahamiyatga ega. Ular umumiy xususiyatga ega bo'lishi va bank huquqining predmetini tashkil etuvchi munosabatlarning asosiy

masalalariga ta'sir etishi hamda bank tizimining o'zagini tashkil etishi bilan huquq normalaridan farq qiladi. Huquq normalari huquq prinsiplariga mos bo'lishi lozim. Bank faoliyati tadbirkorlik faoliyatining bir turi bo'lgani sababli uning faoliyati ikki tipdagi prinsiplarga bo'linadi. Birinchisi, tadbirkorlik faoliyatiga xos umumiy prinsiplar; ikkinchisi, bank faoliyatiga xos bo'lgan prinsiplar. Bank tizimining ikki bo'g'inli tuzilishi; Markaziy bankning mustaqilligi; naqd pullarni Markaziy bankning monopol chop etishi; bank tizimining davlat boshqaruvi va uning o'zini o'zi boshqarishining uyg'unligi; davlat boshqaruv organlarining bank faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmasligi; bank sirining saqlanishi bank faoliyatiga xos prinsiplar sifatida tafsiflanadi [21, 17-b.].

Bank huquqi ommaviy huquq hamda xususiy huquq sohalariga oid me'yorlar va qoidalarining o'zaro qo'shilishi natijasida paydo bo'lgan, uning tamoyillari ham shartli ravishda shunga mos guruhlariga ajratilishi mumkin. Bank huquqida qonuniylik, huquqlarni suiiste'mol qilmaslik, huquqlardan foydalanish chog'ida o'zgalarga zarar yetkazmaslik lozimligi kabi umumhuquqiy tamoyillarga ham qat'iy amal qilinishi lozim. Bank faoliyatida qonunlarga qat'iy amal qilish tamoyili; bank operatsiyalarining maqsadga muvofiq bo'lishi lozimligi; bank axborotlarining daxlsizligi va qonun bilan muhofazalanishi; bank faoliyati tadbirkorlik faoliyatining muayyan shakli ekanligi bank faoliyatiga taalluqli bo'lgan umumiy tamoyillar jumlasiga kiradi [22, 54-55-b.].

Amaldagi bank qonunchiligiga muvofiq, bank faoliyatining ayrim prinsiplari, masalan, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasida banklar moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishda mustaqil ekanligi belgilangan. Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslariga banklar faoliyatiga, shu jumladan, banklarning kredit portfelini hamda aktivlarini shakllantirish bilan bog'liq

tadbirkorlik tavakkalchiliklarini boshqarishga, banklarning rahbar xodimlarini tayinlashga aralashish, shuningdek, bank mablag'lari hisobidan turli to'lovlar va badallar talab qilish taqiqlanadi, bundan ushbu qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno. Qonunning 9-moddasida banklar davlatning majburiyatlari bo'yicha, davlat esa banklarning majburiyatlari bo'yicha javob bermasligi, bundan banklarning yoki davlatning o'zi bunday majburiyatlarni zimmasiga olish hollari mustasno ekanligi belgilangan. Shunday bo'lsa-da, bank qonunchiligimizda bank faoliyatiga doir prinsiplar yagona moddada tizimlashtirilmagan.

Bank faoliyati prinsiplari ayrim xorijiy davlatlarning bank qonunchiligida aks etgan. Masalan, Qirg'iz Respublikasining "Banklar va bank qonunchiligi to'g'risida"gi qonuni 3-moddasiga muvofiq, bank huquqiy munosabatlarining asosiy tamoyillari:

1) qonuniylik, halollik, vijdonlilik, oshkoralik, oqilonalik, adolatlilik, ijtimoiy javobgarlik;

2) bank faoliyatining ishonchliligi va xavfsizligi;

3) bank va moliyaning turli shakllari hamda tamoyillaridan, shu jumladan, Islom banki va moliya tamoyillaridan foydalanish;

4) Qirg'iziston Respublikasi bank qonunchiligida va xalqaro bank standartlarida nazarda tutilgan boshqa umume'tirof etilgan asosiy prinsiplardan iborat ekanligi qayd etilgan [23, 3-b.].

Xitoy Xalq Respublikasining "Tijorat banklari to'g'risida"gi qonuni 4-moddasiga muvofiq, tijorat banklari xavfsizlik, moshlashuvchanlik va samaradorlik tamoyillariga muvofiq faoliyat yuritishi, to'liq mustaqillikka ega bo'lishi va o'z xatarlari, foydalari va zararlari uchun yagona javobgarlikni zimmasiga olishi, shuningdek, o'zini cheklay olishi shart. Mazkur qonunning 5-moddasida tijorat banklari mijozlarga xizmat ko'rsatishda tenglik, iroda erkinligi, adolatlilik va halollik tamoyillariga amal qilishi shartligi, 29-moddasida tijorat banklari ixtiyoriy depozitlar va pulni qo'shimcha haqlarsiz qaytarib olish,

omonatchilarga foizlarni to'lash va omonatchilar uchun shaxsiy omonat sir saqlanishi tamoyillariga amal qilishlari shartligi belgilangan [24, 3-b.].

Belarus Respublikasi Bank kodeksining 13-moddasiga muvofiq, bank faoliyati prinsiplari quyidagicha:

1) banklar va nobank moliya institutlari bank faoliyatini amalga oshirish uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) olishi majburiyligi;

2) bank faoliyatining tizimdagi ahamiyati, bank, bank bo'lmagan moliya institutining tavakkalchilik profiliga qarab davlat tomonidan tartibga solish (mutanosib tartibga solish prinsipi);

3) banklar va nobank moliya institutlarining o'z faoliyatiga mustaqilligi, ishlariga davlat organlarining aralashmasligi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

4) banklar, bankdan tashqari moliya institutlari va davlat o'rtasidagi javobgarlikning chegaralanganligi;

5) Belarus Respublikasi bank tizimining barqarorligi va mustahkamligini ta'minlash uchun Milliy bank tomonidan belgilangan normativ xavfsiz ishlash standartlariga rioya qilish majburiyligi;

6) jismoniy va yuridik shaxslarga bank, bankdan tashqari kredit-moliya institutini tanlash huquqini berish;

7) mijozlarning operatsiyalari, hisobvaraqlari va omonatlari (depozitlari) bo'yicha bank sirini ta'minlash;

8) banklar va bankdan tashqari moliya institutlarining omonatchilariga mablag'lari qaytarilishini ta'minlash [25, 26-b.].

Bundan tashqari, bank tizimida banklarning vazifalari muhim o'rin tutadi, xususan, banklar o'z faoliyat turlaridan kelib chiqib, mijozlarga chakana xizmat ko'rsatadi, Markaziy bank esa ular tomonidan bank qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qiladi. Demak, banklarning vazifalari mazkur oddiy qoidadan kelib chiqadi.

Banklarning asosiy maqsadlari ularning vazifalaridan kelib chiqadi.

Amaldagi bank qonunchiligimizda tijorat banklarining vazifalari norma sifatida belgilanmagan bo'lsa-da, banklar tizimida Markaziy bank va uning bo'ysunuvidagi banklarning operatsiyalari turlaridan kelib chiqib, mazmunan tushuncha hosil qilish mumkin. Masalan, M.Yo'ldoshev va Y.Tursunov kabi olimlarning fikricha, davlat va jamiyatning iqtisodiy xo'jalik tizimida bank muassasalari hamda ular tomonidan amalga oshiriladigan bank faoliyati muhim o'rin tutadi. Zero, jamiyatdagi pul massasi oqimlarining samarali va maqsadli aylanishi, o'zaro hisob-kitoblarning bir maromda amalga oshirilishi, bo'sh moliyaviy mablag'larning ishlab chiqarishga investitsiya qilinishi, xullas, moliyaviy barqarorlik ta'minlanishi ularsiz mumkin emas. Banklarning moliyaviy va iqtisodiy munosabatlaridagi asosiy funksiyalariga yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini jalb etish hamda qaytarilishi sharti bilan, haq evaziga, muddatli va maqsadli foydalanish sharti asosida ularni joylashtirish (kredit sifatida berish, investitsiya qilish va hokazo); hisob-kitoblarni amalga oshirish, O'zbekistonda to'lov tizimlarini shakllantirish; pul va qimmatli qog'ozlar emissiyasi bilan shug'ullanish; qimmatli qog'ozlar bozorida ishtirok etish; tegishli asoslarda valyutaga oid munosabatlarni amalga oshirish; xo'jalik yurituvchi subyektlarga bozor talablariga asoslangan holda boshqa turli xizmatlar ko'rsatish kabilarni kiritish mumkin [22, 29–32-b.]. Mazkur olimlar banklarning vazifalarini ular tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalarga tenglashtiradi.

Ammo A.A. Omonov va T.M. Qoraliyevlarning fikricha, banklarning mohiyati ularning funksiyalarida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Ayrim manbalarda banklar bajaradigan operatsiyalar ularning funksiyalari sifatida qayd etiladi. Biroq shuni ta'kidlash joizki, banklarning barcha operatsiyalari ham ularning funksiyalari bo'la olmaydi. Banklarning birinchi funksiyasi

vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larni jalb qilish, jamg'arish va ushbu mablag'larni kapitalga aylantirishdir. Ikkinchi funksiyasi – korxona va tashkilotlar, davlat kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash. Uchinchi funksiyasi xo'jalik subyektlari pul hisob-kitoblarini amalga oshirish hisoblanadi. To'rtinchi funksiyasi – to'lovlar ni amalga oshirishda vositachilik qilish. Banklarning beshinchi funksiyasi – kredit mablag'larini muomalaga chiqarish, oltinchi funksiyasi iqtisodiy va moliyaviy maslahatlarni berishdir [26, 212–217-b.].

Mazkur olimning fikriga qo'shilgan holda shuni aytish lozimki, banklarning vazifalari, avvalo, jamiyatda kreditlashga zarurat bo'lgan sohalarni moliyalashtirish hisoblanadi, zero, ular bo'sh mablag'larni jamlab, zarurat bo'yicha murojaat qilgan mijozlarga yo'naltiradi.

Yana bir guruh olimlar – A.M. Pollard va R. Natter [27, 32-b.], A.O. Venina, E.R. Kadirgulova, A.D. Bunin, M.P. Morozova va Y.P. Ogorodnikovalarning ta'kidlashicha, banklarning muhim vazifasi ham pul aylanmasini tartibga solishdir. Ular turli xo'jalik yurituvchi subyektlarning to'lov aylanmasi o'tadigan markazlardir. Hisob-kitob tizimi tufayli banklar o'z mijozlari uchun ayirboshlash, mablag'lar va kapital aylanmasini amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, pul aylanmasini tartibga solish to'lov vositalariga taqlid qilish, ishlab chiqarish va muomalaning turli subyektlari ehtiyojlarini kreditlash, iqtisodiyot va aholiga ommaviy xizmat ko'rsatish orqali amalga oshiriladi [28, 63–67-b.].

Y.A. Kasheyeva ta'biri bilan aytganda, banklar funksiyalarning xilma-xilligi va farqlari banklarning asosiy ta'rifini o'zgartirmaydi, ularning mohiyati shundaki, banklar omonatlarni qabul qilish va kreditlar berish orqali iqtisodiyotda vositachilik rolini bajardilar [29, 102-b.].

Mazkur olimning fikrlariga biroz qo'shilmagan holda shuni aytish lozimki, bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar iqtiso-

diyotning alohida sohasiga aylanib, faqatgina vositachi emas, balki qo'shimcha xizmatlar yaratuvchi subyekt ham hisoblanadi. Bundan tashqari, banklarning vazifalaridan farqli ravishda Markaziy bank joriy operatsiyalar bilan shug'ullanmasdan, balki davlat organiga yuklatilgan ma'muriy funksiyalarni bajaradi. Xususan, mazkur masalada L.T. Yefimovanning fikricha Markaziy bankka berilgan ma'muriy funksiya ikki qismga: a) tashkiliy (pul muomalasini tashkil qilish va boshqarish); b) fuqarolik muomalasini, omonatchilar va boshqa kreditorlarning (tijorat banklari kreditorlarining) manfaatlarini muhofaza qilish funksiyasiga [30, 8-b.] bo'linadi.

N.D. Eriashvilining fikricha esa Markaziy bank "banklar banki" bo'lib, kredit tashkilotlari faoliyati ustidan tekshiruv va nazoratni amalga oshiradi [31, 15-b.]. G. Tosunyaning ta'kidlashicha, "Markaziy bank huquqiy holatining asosiy xususiyati shundaki, u ma'muriy huquqlari amalga oshirishini o'zining xo'jalik faoliyati bilan birga qo'shib olib boradi" [32, 25-b.].

Yuqoridagi olimlarning Markaziy bankning vazifa va funksiyalari bo'yicha bildirgan fikrlari o'rinli bo'lib, Markaziy bank ayni vaqtda banklarga chakana bank funksiyasini bajaradi hamda barcha banklarning o'z vazifalarini to'g'ri yuritishlarini nazorat ham qiladi.

Yuridik adabiyotlarda Markaziy bank korxonami (ya'ni foyda olishni ko'zlovchi tijorat tashkilotmi) yoki muassasami (foyda olishni maqsad qilib qo'ymaydigan notijorat tashkilotimi) degan mavzuda ilmiy munozara davom etib kelmoqda. Fikrimizcha, Markaziy bank foyda olishni maqsad qilib qo'ymagan, davlat organlarining vakolatlari yuklatilgan tashkilot hisoblanadi.

N.Y. Yerpileva Markaziy bankning bank tizimidagi ishtirokini tahlil etar ekan, shularni qayd etadi: "Markaziy bankning tartibga solish funksiyasi quyidagi ikki maqsadga – birinchidan, bank xizmatlarining

asosiy iste'molchilari bo'lgan omonatchilarni har bir muayyan bankning moliyaviy halokati tufayli yuz berishi mumkin bo'lgan xavf-xatardan himoya qilish, ikkinchidan, bank tizimlarini moliyaviy halokatlar zanjiri yuz berishi xavfidan muhofaza qilish maqsadiga bo'ysundirilgan [33, 48-b.].

M.Yo'ldoshev va Y.Tursunovlar Markaziy bank qo'lida banklarni ro'yxatga olish, ularga litsenziya berish, nazorat qilish, hisob-kitob va kassa xizmatlari ko'rsatish, majburiy rezervlar tashkil etilishini nazorat qilish, qonunosti me'yoriy-huquqiy hujjatlar chiqarish jamlanganini e'tirof etib, mazkur vakolatlar bitta organda jamlanishiga jahon miqyosida olganda tanqidiy yondashdilar [34, 240-b.]. Fikrimizcha, bunday vakolatlarning berilishi, avvalo, Markaziy bankning boshqa organlardan mustaqil o'z ichki siyosatini belgilashi va bank munosabatlarini ichki hujjatlar bilan tartibga solishga urinishida ifodalanadi.

Yuridik adabiyotlarda Markaziy bankka yuklatilgan funksiyalar ko'lami va hajmi juda ham kengligi qay darajada maqsadga muvofiqligi haqida tanqidiy fikrlar bildiriladi. Masalan, G.A.Tosunyanning fikricha, bunday turli-tuman tabiatli funksiyalarning Markaziy bankka yuklatilganligi va shunga ko'ra haddan tashqari vakolatlar berilganligi moliya bozori va pul-kredit munosabatlaridagi cheksiz monopoliyadan boshqa narsa emas [32, 31-b.]. Ammo mazkur masala, avvalo, qonunchilik bilan davlat tomonidan Markaziy bankka yuklatilgan vazifa va funksiyalardan kelib chiqishini ta'kidlash zarur.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining bank tizimi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan va banklardan iborat. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit va valyuta siyosatini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki mamlakatda banklar faoliyatini tartibga solishni amalga oshiradi,

bank va to'lov tizimlarining barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'z vazifalarini bajarishda mustaqildir.

Masalan, "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasiga muvofiq, Markaziy bank faoliyatining asosiy maqsadlar narxlarning, bank tizimining, to'lov tizimlari ishlashining barqarorligini ta'minlashdan iborat. Foyda olish Markaziy bankning maqsadi hisoblanmaydi. Shuningdek, mazkur qonunning 12-moddasida Markaziy bankning asosiy vazifalari belgilangan.

Qo'shni davlatlarning qonunchiligida markaziy bankning o'xshash maqsad va vazifalari belgilangan, xususan, Qozog'iston Respublikasining "Milliy bank to'g'risida"gi qonuni 7-moddasiga muvofiq, Qozog'iston milliy bankining asosiy maqsadi Qozog'iston Respublikasida narxlarning barqarorligini ta'minlashdir. Asosiy maqsadga erishish uchun Qozog'iston Milliy bankiga quyidagi vazifalar yuklangan: 1) davlatning pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish; 2) to'lov tizimlarining ishlashini ta'minlash; 3) valyutani tartibga solish va valyuta nazoratini amalga oshirish; 4) moliya tizimining barqarorligini ta'minlashga ko'maklashish; 7) pul-kredit statistikasi, moliya bozori statistikasi va tashqi sektor statistikasi sohasida statistik faoliyatni amalga oshirish; 8) Qozog'iston Respublikasi qonunlariga va Qozog'iston Respublikasi Prezidentining hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar [35, 3-b.].

Gruziyaning "Milliy bank to'g'risida"gi qonuni 3-moddasiga muvofiq, Milliy bankning asosiy vazifasi narxlar barqarorligini ta'minlashdir. Milliy bank moliya tizimining barqarorligi va shaffofligini ta'minlashi va agar uning asosiy vazifasini bajarishga xavf tug'dirmasa, mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ham ta'minlashi kerak. Milliy bankning vazifalari: 1) Gruziya parlamenti tomonidan belgilangan asosiy yo'nalishlarga muvofiq pul-kredit si-

yosatini ishlab chiqish va amalga oshirish; 2) moliyaviy sektorni nazorat qilish; 3) pul tizimining ishlashini ta'minlash; 4) rasmiy xalqaro zaxiralarga egalik qilish, saqlash va tasarruf etish; 5) Gruziya hukumatining bankiri va fiskal agenti bo'lish; 6) to'lov tizimlarining xavfsiz, barqaror va samarali ishlashini ta'minlash; 7) Gruziya banknotlarini chiqarish; 8) xalqaro standartlar va metodologiyalarga muvofiq mamlakatning moliyaviy va tashqi tarmoqlari bo'yicha statistik ma'lumotlarni saqlash hamda tarqatish [36, 4-b.].

Qirg'iz Respublikasining "Milliy bank to'g'risida"gi qonuni 3-moddasiga muvofiq, Milliy bank faoliyatining maqsadi tegishli pul-kredit siyosatini amalga oshirish orqali narxlar barqarorligiga erishish va saqlashdir. Milliy bank: 1) pul-kredit siyosatini belgilaydi va amalga oshiradi; 2) umumiy valyuta siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi; 3) barcha xalqaro zaxiralarga egalik qiladi va boshqaradi; 4) Qirg'iz Respublikasining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga hissa qo'shadi; 5) Qirg'iz Respublikasi milliy valyutasidagi banknotlarni chiqarish mutlaq huquqiga ega va naqd pul muomalasini tashkil qiladi; 6) elektron pul chiqarish (chiqarish) huquqiga ega; 7) ushbu Konstitutsiyaviy qonun va Qirg'iz Respublikasi qonunlariga muvofiq, shu jumladan, maxsus tartibga solish rejimlari doirasida ruxsatnomalar beradi; 8) Qirg'iziston Respublikasi bank tizimini, shu jumladan, banklar va bank guruhlarini faoliyatini tartibga soladi hamda nazorat qiladi; 9) bankdan tashqari moliya-kredit tashkilotlarini va Milliy bank tomonidan nazorat qilinadigan boshqa yuridik shaxslarni tartibga soladi hamda nazorat qiladi; 10) to'lov tizimini nazorat qiladi, Qirg'iz Respublikasi to'lov tizimining samarali, ishonchli va xavfsiz ishlashiga hissa qo'shadi; 11) bankni moliyalashtirishning turli shakllari va tamoyillarini, shu jumladan, bank va moliyaning islomiy tamoyillarini amalga oshiradi, shariat me'yor-

lariga muvofiq bank operatsiyalari qoidalarini belgilaydi; 12) ushbu Konstitutsiyaviy qonunga muvofiq bank operatsiyalarini amalga oshiradi; 13) Milliy bank tomonidan nazorat qilinadigan shaxslarning vaqtincha ma'murlari va banklarning tugatuvchilari, shuningdek, Milliy bank tomonidan belgilanadigan nobank moliya-kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga soladi va nazorat qiladi; 14) Milliy bank tomonidan nazorat qilinadigan shaxslar faoliyatini monopoliyaga qarshi tartibga solishni amalga oshiradi; 15) Milliy bank tomonidan nazorat qilinadigan shaxslarning Qirg'iz Respublikasi bank va to'lov xizmatlarini, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilikka rioya etishini nazorat qiladi; 16) Qirg'iz Respublikasining qimmatbaho metallar muomalasini tartibga soluvchi qonunchiligiga muvofiq tozalangan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni imtiyozli sotib olish huquqini amalga oshiradi; 17) qimmatbaho metallardan tayyorlangan nozik o'lchovli ingotlarni ishlab chiqaradi; 18) ushbu Konstitutsiyaviy qonunga muvofiq banklar uchun so'nggi chora sifatida qarz beruvchi hisoblanadi; 19) pul-kredit siyosati, bank va to'lov tizimlari masalalari bo'yicha xalqaro tashkilotlarda Qirg'iz Respublikasi manfaatlarini ifodalaydi va nomidan ish yuritadi; 20) rasmiy statistika sohasidagi davlat organi bilan birgalikda to'lov balansini tuzadi va Qirg'iz Respublikasining xalqaro investitsion pozitsiyasini belgilaydi [37, 3-b.].

Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Bank va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasiga "O'zbekiston Respublikasi bank tizimi – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari, shu'ba banklar, ularning filiallari, vakolatxonalari, operatsion idoralari (punktleri), xorijiy banklarning vakolatxonalaridan iborat" mazmunidagi normani mustahkamlash lozim.

Banklar turlari ularning mulk shakliga ko'ra (davlat, xususiy), xizmat ko'rsatish hududiga ko'ra (davlatlararo, xalqaro), ta'sischi toifasiga ko'ra (milliy, chet el ish-tirokida, chet el banki), faoliyati turi va sohasiga ko'ra (ipoteka, investitsiya, qishloq xo'jaligi, sanoat-qurilish) va maqsadi (tijorat va notijorat) tasniflanadi.

Davlatlararo bank – xalqaro shartnoma (bitim) asosida tashkil etilgan va faoliyat yurituvchi bank bo'lib, uning ta'sisчилari O'zbekiston Respublikasi hukumati (yoki u vakolat bergan davlat organi) va ushbu shartnomani (shartnomani) imzolagan davlat (davlatlar) hukumati (hukumatlari) hisoblanadi.

Bugungi kunda bank tizimiga oid ellikka yaqin qonun hujjatlari qabul qilingan. Shu sababli ushbu hujjatlarning shaffofligi va ochiqqligini ta'minlash, Markaziy bank qo'llaydigan chora va sanksiyalarda qonuniyligni ta'minlash, bank qonunchiligi normalarini qo'llash tizimini bir xillashtirish va bank qonunchiligini tizimlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Bank kodeksini qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga "Bank prinsiplari" deb nomlanuvchi 31-moddani kiritishni hamda quyidagi normani belgilash maqsadga muvofiq:

"Bank prinsiplari quyidagi: bank faoliyatiga doir prinsiplari – qonuniylik; mustaqillik; oshkoralik; bank faoliyatining ishonchliligi va xavfsizligi; bank va davlat o'rtasidagi javobgarlikning chegaralanganligi; xalqaro bank standartlarida nazarda tutilgan boshqa umume'tirof etilgan asosiy prinsiplardan iborat. Bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlarga doir prinsiplar tenglik, iroda erkinligi, halollik, oqilonalik, adolatlilik, omonatlarning sir saqlanishi, omonatlarning qaytarilishi kafolatlanganligi prinsiplaridan iborat.

Markaziy bankning asosiy maqsadi – moliya-kredit mexanizmlari orqali pul

va narxlarning barqarorligini ta'minlash hisoblanadi, u mazkur maqsaddan kelib chiqib moliyaviy vazifalarni bajaradi (nazorat qilish, tekshirish, monitoring qilish, normativ-huquqiy hujjat chiqarish orqali tartibga solish, litsenziyalash, maslahat, kafolat, kafil, fiskal agent, rezerv, depozitariy va boshqalar).

Bundan tashqari, banklarning asosiy vazifasi – moliya-kredit tizimida bo'sh mablag'lardan unumli foydalanish orqali kapital bozorni moliyalashtirish va aholiga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish hisoblanadi".

Shu bilan birga, MDH davlatlari bank qonunchiligida banklarni ochishda muassislarga qo'yilgan talablar doirasida jismoniy shaxslarga qo'yilgan individual sanksiyalar aniq belgilangan bo'lib, mazkur normani milliy qonunchilikka tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Rivojlangan davlatlar va MDH davlatlarning qonunchiligida banklarning tashkiliy-huquqiy shakli aksiyadorlik jamiyati sifatida belgilangan bo'lib, mazkur shaklning tanlanishi jamiyatning oshkora ishlashi, mijozlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda aksiyalar orqali moliyaviy mablag'larni jalb qilishda ifodalanadi. Rivojlangan davlatlar va MDH davlatlarining bank qonunchiligida banklar ochish uchun talab etiladigan hujjatlar soni va hajmi xilma-xil bo'lib, asosan litsenziya beruvchi organ tomonidan qo'shimcha hujjatlar so'rab olish vakolatlarini belgilangan.

Bank operatsiyalari banklar tomonidan litsenziyada hamda qonunchilikda amalga oshirilishiga ruxsat etilgan harakat turlari bo'lib, mazkur harakatlar korporativ va fuqarolik vositalari orqali realizatsiya qilinadi. Xalqaro moliya va bank tashkilotlariga a'zo bo'lish hamda xalqaro bank standartlarni implementatsiya qilishdan ko'zlangan maqsad bank qonunchiligini doimiy takomillashtirib borish hamda bank tizimida moliyaviy inqirozlarning oldini olishdir.

REFERENCES

1. Raximova O.O., Bozarov Sh.T. Bank huquqi [Banking law]. Tashkent, 2000, p. 19.
2. Umarova M.B. O'zbekistonda bank infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari [Prospects for the development of banking infrastructure in Uzbekistan]. PhD thesis. Tashkent, 2020, p. 13.
3. Sattarov O.B. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish [Improving the methodology of ensuring the stability of the banking system of the Republic of Uzbekistan]. Doctoral Dissertation. Tashkent, 2018, p. 27.
4. Ruchkina G.F. Bankovskoye pravo [Banking law]. Moscow, 'Yurayt' Publ., 2023, p. 14.
5. Finansovoye pravo Respubliki Uzbekistan [Financial Law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 'Niso Poligraf' Publ., 2022, p. 533.
6. Polyushko Y.N., Osipova K.V. Bankovskaya sistema, vidy va funktsii bankov [Banking system, types and functions of banks]. *Theory and Practice of Modern Science*, 2017, no. 1 (19), pp. 754–758.
7. Hojiyev E., Kamalov O., Artikov B. Moliya huquqi: Ma'ruzalar kursi [Financial Law: Lecture Course]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2012, p. 256.
8. Hamidov A.M. Davlatning moliyaviy faoliyati [Financial activity of the state]. Tashkent, 2009, p. 152.
9. Xojiyev E. O'zbekiston Respublikasi bank huquqi [Banking law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, TSIL, 2011, p. 17.
10. Zulyarov A. Bank huquqi [Banking law]. Tashkent, Tashkent Islamic University Publ., 2001, p. 6.
11. Rahimova A., Hojiyev E. O'zbekiston Respublikasi moliya huquqi [Financial law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 2002, p. 259.
12. On banking and banking activities in the Republic of Kazakhstan. Law of the Republic of Kazakhstan of August 31, 1995 No. 2444. Available at: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=1003931&pos=5;-106#pos=5;-106
13. On banks and banking activities. Law of the Republic of Azerbaijan of January 16, 2004 No. 590-IIQ. Available at: https://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=7427
14. On banking and banking activities. Federal Law of the Russian Federation of December 2, 1990 No. 395-10. Available at: https://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=1745
15. Law of the Republic of Tajikistan on banking activities. Available at: <https://ncz.tj/content/zakon-respubliki-tadzhikistan-o-bankovskoy-deyatelnosti>
16. Law of Turkmenistan on credit institutions and banking activities. 2023, June 3, No. 386-VI. Available at: <https://mejlis.gov.tm/single-law/229?lang=ru>
17. Law of the Republic of Armenia on banks and banking activities. 2022, June 9. Available at: <http://www.parliament.am/legislation.php?sel=show&ID=1681&lang=rus>
18. Abduraxmanov A. Banklar, ularning turlari, asosiy funksiyalari [Banks, their types, main functions]. *Science and Education*, 2023, May, vol. 4 (5), pp. 1310–1313.
19. Miradova M. Osnovnyye funktsii i vidy bankov [Main functions and types of banks]. *Bulletin of Science*, 2023, May, vol. 2 (5), p. 2.
20. Ahmadjonov O. Islom banki va an'anaviy banklar o'rtasidagi farqlar [Differences between Islamic banking and conventional banking]. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2022, October, vol. 2 (10/2), p. 756.
21. Li A., Bilolxujayeva Sh. Bankovskoye pravo [Banking law]. Tashkent, 'Tib- kitob' Publ., 2010, p. 17.
22. Yo'ldoshev M., Tursunov Y. Bank huquqi [Banking law]. Tashkent, 'Moliya' Publ., 2007, pp. 54–55.
23. Law on banks and banking activities of the Kyrgyz Republic. Available at: <https://cbd.minjust.gov.kg/112428/edition/1241184/ru>

24. Law of the People's Republic of China on Commercial Banks. Available at: <http://www.iolaw.org.cn/global/en/showNews.aspx?id=31824>
25. Bank Code of the Republic of Belarus of October 25, 2000, No. 441-3. Available at: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30414730&pos=6;-106#pos=6;-106
26. Omonov A.A., Qoraliyev T.M. Pul, kredit va banklar [Money, credit and banks]. Tashkent, Tax Academy, Tashkent Financial Institute, 2012, pp. 212–217.
27. Pollard A.M., Natter R. Banking law in the United States. USA, 2022, p. 32.
28. Venina A.O., Kadirgulova E.R., Bunin A.D., Morozova M.P., Ogorodnikova Ye.P. Problemy i perspektivy kreditovaniya malogo biznesa v Rossii [Problems and prospects of small business lending in Russia]. Modern society: global and regional processes: Proceedings of the international scientific conference, 2017, pp. 63–67.
29. Kasheyeva Ye.A. Traditsionnaya teoriya bankov i sovremennyye tendentsii v bankovskom dele [Traditional Banking Theory and Modern Trends in Banking]. *Bulletin of St. Petersburg University*, Ser. 5, 2006, no. 3, p. 102.
30. Yefimova L.G. Bankovskoye pravo [Banking law]. Moscow, 2021, p. 8.
31. Eriashvili N.D. Bankovskoye pravo [Banking law]. Moscow, 'YUNITI' Publ., 'Zakon i pravo', 2022, p. 15.
32. Tosunyan G.A. Bankovskoye delo i bankovskoye zakonodatel'stvo v Rossii: opyt, problemy, perspektivy [Banking and banking legislation in Russia: experience, problems, prospects]. Moscow, Russian Academy of National Economy, 'Delo' Ltd, 1995, p. 25.
33. Yerpileva N.Yu. Mezhdunarodnoye bankovskoye pravo [International banking law]. Moscow, 'Infra-M' Publ., 2012, p. 48.
34. Yo'ldoshev M., Tursunov Y. Bank huquqi [Banking law]. 2nd ed. Tashkent, 'Asia offset print' Publ., 2004, p. 240.
35. Law of the Republic of Kazakhstan on the National Bank of the Republic of Kazakhstan. Available at: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=1003548&pos=3;-106#pos=3;-106
37. Law on the National Bank of Georgia. Available at: <https://www.matsne.gov.ge/ru/document/view/101044?publication=55>
38. Constitutional Law of the Kyrgyz Republic on the National Bank of the Kyrgyz Republic. Available at: <https://www.nbkr.kg/index1.jsp?item=41&lang=RUS>